

# Qurilish ishlari



## RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **341,0** mlrd. so'm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi - **4,6 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar - **75,4 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi- **20,0 foiz**


### 2018 yil yanvar-iyul oylari

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 341,0 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9 foizni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 2,9 foiz punktga o'sgan.


Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 15,6 mlrd.so'mni yoki 82,8 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,2 foiz punktga pasaygan.

Ko'pgina shahar va tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Shirin shahrda qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 0,9 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati 21,1 foizni, mos ravishda, Oqoltin tumanida – 0,9 mlrd.so'm yoki 67,0 foizni, Mirzaobod tumanida – 3,5 mlrd.so'm yoki 67,4 foizni tashkil etdi.

## Qurilish ishlari (mlrd.so'm)



**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati  
2018 yil yanvar-iyul uchun**



**2018 yilning yanvar-iyul oyalarida hududlar kesimida qurilish ishlari  
quyidagicha ifodalanadi:**


	<i>Jami</i>	
	<i>mldr. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Viloyat bo'yicha	341,0	102,9
Guliston sh	112,1	116,0
Shirin sh	19,2	108,5
Yangier sh	30,1	96,1
Boyovut	26,9	104,9
Guliston	19,1	94,1
Mirzaobod	30,6	99,4
Oqoltin	22,3	109,1
Sardoba	9,9	104,7
Sayxunobod	12,2	110,2
Sirdaryo	37,1	100,7

Xovos

21,5

68,9


**2018 yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari  
umumi hajmida hududlarning ulushi  
(umumi hajmga nisbatan %da)**



Hududlar kesimida qurilish ishlaring katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlaring 32,9 % tashkil etdi, Sirdaryo tumanida 10,9 % ni, Yangier shahrida bajarilgan qurilish ishlari 8,8 % ni, va Mirzaobod tumanida 9,0 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Sardoba tumanida bu ko'rsatkich eng past 2,9 % ni va Sayxunobod tumanida 3,6 % ni tashkil etdi.


**Yanvar - iyul oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish  
ishlari (mlrd.so'm)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 70,6% ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 18,0% ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,5 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga ko'paydi.





## **2017 yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**



## **Mulkchilik shakllari**

### **Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari**

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 317,4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,1 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 foiz punktiga o'sdi.



**Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

**G.Muxraximova**  
(0371) 230-86-27

Nashr uchun mas'ul: